

EKUMENIZMNING TARIXIY ILDIZLARI VA RIVOJLANISHI

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish
UNESCO kafedrasida stajyor-tadqiqotchisi*

Safarova Shohsanam Baxtiyor qizi

Manzil: Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy

Telefon: +998 95 700 80 24

E-mail: safarovashohsanam133@gmail.com

Ekumenizm (grekcha *oikoumene* — “butun dunyo”) xristian dunyoqarashining eng muhim ilmiy va ma'naviy tendensiyalaridan biri bo'lib, u cherkovlar o'rtasidagi birlik va hamjihatlik g'oyasini ilgari suradi. Bu harakatning mohiyati xristianlikdagi konfessiyaviy farqlarni bartaraf etish, o'zaro ishonch va muloqotni kuchaytirish orqali umumiy insoniy qadriyatlar atrofida birlashishdir. Ekumenizm XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faqat diniy yoki teologik doktrina emas, balki ijtimoiy-gumanitar va siyosiy ahamiyatga ega global harakatga aylandi.

Ekumenik g'oyalar zamonaviy ko'rinishda ilk bor 1910 yilda Shotlandiyaning Edinburg shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon missionerlik konferensiyasida shakllana boshladi. Mazkur anjumanda protestant va anglikan missionerlar xristianlikning asosiy vazifasi “birlik va hamjihatlikka intilish” ekanini ta'kidladilar. Shu maqsad bilan keyinchalik “Hayot va xizmat” (*Life and Work*, 1925) va “Iymon va tartib” (*Faith and Order*, 1927) kabi harakatlar paydo bo'ldi. 1948 yilda esa bu harakatlar asosida Butunjahon cherkovlar kengashi (World Council of Churches, WCC) tuzildi. U dunyodagi pravoslav va protestant jamoalarni birlashtirgan yirik tashkilot sifatida konfessiyalararo diniy muloqotning institutsional maydonini yaratdi.

Katolik cherkovi uzoq vaqt davomida ekumenizm masalasiga ehtiyotkorona yondashgan bo'lsa-da, XX asrning 60-yillarida bu jarayonga rasmiy ravishda qo'shildi. 1962–1965-yillarda o'tkazilgan II Vatikan kengashida qabul qilingan Unitatis Redintegratio, Lumen Gentium va Nostra Aetate kabi muhim hujjatlar katolik cherkovining boshqa konfessiyalar hamda turli dinlarga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab berdi. Ushbu hujjatlarda xristianlarning yagona e'tiqod asosida birlashishi va boshqa dinlarga hurmat ruhida yondashish zarurligi alohida urib ko'rsatildi. Natijada, ushbu kengash ekumenizmni katolik cherkovining e'tiqodiy tizimi doirasida mustahkamlab, uni diniy ta'limot va ilmiy qarashlarning muhim tarkibiy qismiga aylantirdi.

XX asrda Hans Kyung, Jon Zizioulas, Valter Kasper, Aleksandr Shmeman kabi nufuzli dinshunos olimlar ekumenizmning ilmiy asoslarini ishlab chiqdilar. Hans Kyung o'zining *Christianity: Essence, History, and Future* (London, SCM Press,

2001) asarida uni “cherkov birligi masalasidagi dialektik harakat” sifatida tavsifladi. Jon Zizioulas esa *Being as Communion* (Cambridge University Press, 1985) asarida cherkovning e'tiqodiy birligini shaxsiy mavjudlik falsafasi bilan bog'ladi. Valter Kasper *That They May All Be One* (London, Burns & Oates, 2004) asarida ekumenizmni xristianlikning “ilohiy loyihasi” sifatida tushuntiradi. Ushbu olimlarning ilmiy qarashlari ekumenizmni faqat teologik harakat emas, balki inson ongi va madaniyatini yagona axloqiy platformaga yo'naltiruvchi sivilizatsion jarayon sifatida izohlaydi.

1974 yildagi Lozanna deklaratsiyasi (*Lausanne Covenant*) va 2010 yildagi Keyptaun deklaratsiyasi (*Cape Town Commitment*) protestant va evangelik jamoalarning ekumenik g'oyalari global darajada mustahkamladi. Bu hujjatlarda dunyodagi konfessiyalar va dinlar o'rtasida tinchlik, adolat va bag'rikenglikni ta'minlash xristian burchining bir qismi ekani ta'kidlandi. Butunjahon cherkovlar kengashi keyinchalik “Justice, Peace and the Integrity of Creation” dasturini qabul qilib, ekumenizmni ijtimoiy barqarorlik, adolat va ekologik mas'uliyat kabi keng sohalarga olib kirdi.

O'zbekiston hududida xristianlik ilk bor milodiy IV asrlarda Nestorian cherkovi faoliyati orqali kirib kelgan. Samarqand va Xorazm atrofidan topilgan arxeologik dalillar bu yirik diniy harakatning ildizlarini tasdiqlaydi. XIX asrda esa Rus pravoslav cherkovi missionerlik faoliyati orqali hozirgi O'zbekiston hududida doimiy jamoalar tuzdi. Mustaqillikdan keyin mamlakatda pravoslav, katolik va protestant cherkovlari davlat ro'yxatidan o'tib, erkin faoliyat yuritmoqda. Ular hozirda O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonuni (1998) va Konstitutsiyaning 35-moddasi bilan kafolatlangan huquqiy asosda ish yuritadi.

O'zbekistonda konfessiyalararo tinchlik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasida ilgari surgan “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyutsiyasi mamlakatning ko'pkonfessiyaviy muhitida ekumenik g'oyalarga mos bo'lgan xalqaro muloqot modelini yoritdi. Shuningdek, 2025 yil 21 aprel kuni qabul qilingan PF-68-sonli Farmonda fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida qayd etildi.

O'zbekistondagi xristian jamoalarida ekumenik g'oyalar amaliy faoliyatda o'z ifodasini topmoqda. Bu jarayon mamlakatning diniy siyosati, huquqiy asoslari va jamoat hayoti orqali aniq ko'rinish olmoqda.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasida konfessiyalararo tinchlik va bag'rikenglik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2025-yil 21-aprel kuni qabul qilingan PF-68-sonli Prezident farmonida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqlarini kafolatlash, diniy sohada islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish va konfessiyalararo hamkorlikni kuchaytirish vazifalari belgilangan. Shu bilan bir

qatorda, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun (1998) ham barcha konfessiyalarga diniy marosimlarni erkin ado etish va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida faoliyat yuritish uchun kafolat yaratadi. Ushbu me‘yoriy asos xristian konfessiyalarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatiga huquqiy mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ekumenik g‘oyalarning O‘zbekistondagi amaliy ifodasi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining “Dinlararo bag‘rikenglik va ma‘rifat siyosatining O‘rta Osiyo modellari” (Toshkent, 2023) nomli to‘plamida ham o‘z aksini topgan. Mazkur ilmiy nashrda pravoslav, katolik va protestant jamoalarining diniy-ma‘rifiy sohadagi o‘zaro aloqalari, tinchlik, bag‘rikenglik va ma‘rifatparvarlik yo‘nalishidagi faol hamkorliklari qayd etilgan. Xususan, Pasxa va Rojdestvo bayramlari arafasida turli konfessiyalar vakillarining bir-birini tabriklashi, diniy-ma‘naviy tadbirlarda qo‘shma ishtiroki mamlakatda shakllangan ijtimoiy-diniy totuvlik muhitini ifodalaydi. Bundan tashqari, ekumenik hamkorlikning amaliy dalillari ommaviy axborot vositalari orqali ham tasdiqlanadi. Rus Pravoslav Cherkovi Tashkent va O‘rta Osiyo mitropoliyasining rasmiy veb-saytida (mitropolia.uz) 2023 yil Pasxa bayrami munosabati bilan katolik jamoasi vakillari bilan o‘zaro tabrik almashuvi haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, Catholic.uz portalida pravoslav va protestant cherkovlari vakillari ishtirok etgan “Tinchlik va diniy bag‘rikenglik” mavzusidagi konferensiyalar haqida xabarlar e‘lon qilingan. Bu tashabbuslar diniy jamoalarning o‘zaro hurmat, ochiqlik va muloqot madaniyatini kuchaytirayotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, mavjud huquqiy asoslar, ilmiy tahlillar va amaliy dalillar O‘zbekistondagi xristian konfessiyalarining faoliyatida ekumenik g‘oyalar amalda namoyon bo‘layotganini tasdiqlaydi. Ular mamlakatda dinga nisbatan bag‘rikeng siyosat, ijtimoiy barqarorlik va turli diniy hamjamiyatlar o‘rtasidagi totuvlikning muhim tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etilishi mumkin. Bu esa ekumenizmning mahalliy sharoitda real ko‘rinishda amal qilayotganini, diniy-madaniy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotganini ilmiy asosda isbotlaydi.

Shu tariqa, ekumenizmning XX asrdagi tarixi cherkovlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yengish va umuminsoniy qadriyatlarni ilgari surish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa, uning O‘zbekiston sharoitidagi namoyon bo‘lishi diniy bag‘rikenglik, islom va xristian jamoalarining tinch-totuv hamkorligi orqali amalga oshmoqda. Ushbu ilmiy yo‘nalish mamlakatda konfessiyalararo munosabatlarni chuqur o‘rganish, diniy siyosatni ilmiy asosda takomillashtirish hamda jamiyatdagi ma‘naviy barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim nazariy qiymatga ega.

Ekumenizm faqat cherkovlar o‘rtasidagi birlikni emas, balki xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi hamjihatlik hamda o‘zaro tushunishni ifodalaydigan g‘oya sifatida talqin etiladi. O‘zbekistonda mavjud ko‘pkonfessiyaviy muhit, diniy hurmat

tamoyillari va davlat siyosatining ochiqqligi esa turli diniy jamoalar o'rtasida muloqot va hamkorlikning izchil rivojlanishi uchun ijobiy shart-sharoit yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Küng H. *Christianity: Essence, History, and Future*. – London: SCM Press, 2001.
2. Zizioulas J.D. *Being as Communion: Studies in Personhood and the Church*. – Crestwood, New York: St Vladimir's Seminary Press, 1985.
3. Kasper W. *That They May All Be One: The Call to Unity Today*. – London: Burns & Oates, 2004.
4. Schmemmann A. *The Historical Road of Eastern Orthodoxy*. – Crestwood, New York: St Vladimir's Seminary Press, 1977.
5. *Nostra Aetate* // Vatican Council II tomonidan 1965-yil 28-oktabrda qabul qilingan cherkovning nasroniy bo'lmagan dinlar bilan munosabati to'g'risidagi deklaratsiya.
6. *The Lausanne Covenant* // International Congress on World Evangelization. – Lausanne, 1974.
7. *The Cape Town Commitment* // The Third Lausanne Congress. – Cape Town, 2010.
8. World Council of Churches. *History of the World Council of Churches*. – Geneva: WCC.
9. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida. – Toshkent, 2021-yil 5-iyul, O'RQ-699-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. 35-modda.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. – 2025-yil 21-aprel, PF-68-son.
12. World Council of Churches. *Councils of Churches*. – Geneva: WCC.
13. BMT Bosh Assambleyasi. "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi rezolyutsiya. – Nyu-York, 2018-yil 12-dekabr.